

PUBLISISTIK USLUBDAGI MATNLARNING LINGVISTIK

ASPEKTLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada publisistik uslubdagi matnlarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Matnlarning publisistik janri xususiyatlariga mos ravishda, undagi til va uslubiy elementlar, jumladan, leksik, sintaktik va stilistik vositalar o'rganiladi. Maqolada, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarida uchraydigan kommunikativ maqsadlar va auditoriya bilan munosabatlar, so'z tanlovi va uslubiy rang-barangliklar yoritilgan. Publisistik matnlar orqali auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatish uchun tilning qanday strategiyalari qo'llanilayotgani hamda ularning lingvistik jihatlari muhokama qilinadi. Ushbu tahlil, publisistik uslubdagi matnlarning shakl va mazmunining o'zaro bog'liqligini, shuningdek, til va madaniyatning ommaviy axborot vositalaridagi ahamiyatini chuqur anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Kommunikatsiya, emotsionallik, OAV, stilistik vositalar, manipulyatsiya, leksik vositalar, ijtimoiy kontekst, normativlik

Гафурова Гулрух Бахтияровна

Старший преподаватель Джизакского

государственного педагогического университета

gafurovagulruh85@gmail.com

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТЕКСТОВ В ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОМ СТИЛЕ

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические особенности текстов в публицистическом стиле. Рассматриваются языковые и

стилистические элементы, соответствующие особенностям публицистического жанра, включая лексические, синтаксические и стилистические средства. Особое внимание уделяется коммуникативным целям и взаимодействию с аудиторией, а также выбору слов и стилистическому разнообразию, встречающимся в средствах массовой информации. В статье обсуждаются лингвистические стратегии, применяемые для эффективного общения с аудиторией через публицистические тексты. Этот анализ помогает глубже понять взаимосвязь формы и содержания публицистических текстов, а также важность языка и культуры в средствах массовой информации.

Ключевые слова: Коммуникация, эмоциональность, СМИ (Средства массовой информации), стилистические средства, манипуляция, лексические средства, социальный контекст, нормативность

Gafurova Gulrukh Bakhtiyarovna

Senior Lecturer at Jizzakh State Pedagogical University

gafurovagulruh85@gmail.com

LINGUISTIC ASPECTS OF TEXTS IN THE PUBLICISTIC STYLE

Abstract: This article analyzes the linguistic features of texts in the publicistic style. The linguistic and stylistic elements corresponding to the characteristics of the publicistic genre are considered, including lexical, syntactic, and stylistic tools. Special attention is given to the communicative goals and interaction with the audience, as well as the choice of words and stylistic variety encountered in the mass media. The article discusses the linguistic strategies used for effective communication with the audience through publicistic texts. This analysis helps to gain a deeper understanding of the interconnection between form and content in publicistic texts, as well as the significance of language and culture in mass media.

Key words: communication, emotionality, mass media (mass communication), stylistic devices, manipulation, lexical devices, social context, normativity.

Kirish

Publisistik uslub — bu ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda keng qoʻllaniladigan, odamlarni oʻylashga, his-tuygʻularga taʼsir qilishga, turli maqsadlarga erishishga qaratilgan nutq uslubidir. Ushbu uslubdagi matnlar faqatgina axborot berish bilan cheklanmaydi, balki auditoriyaning fikrini shakllantirish, ular bilan muloqot oʻrnatish va turli muammolarni muhokama qilish maqsadida yaratiladi. Publisistik uslubdagi matnlar, shuningdek, maʼlum bir auditoriyaga taʼsir koʻrsatish uchun maxsus til vositalarini qoʻllashni talab qiladi. Matnlarning publisistik janri tilshunoslikda alohida oʻrganiladigan soha boʻlib, uning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish tilning oʻziga xos uslublarini, strukturaviy xususiyatlarini va kommunikativ maqsadlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada, publisistik uslubdagi matnlarning lingvistik aspektlari, jumladan, leksik, sintaktik, stilistik elementlar, soʻz tanlovi va ularning auditoriya bilan samarali muloqot oʻrnatishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, til vositalarining auditoriyaga taʼsir qilishdagi oʻrni va ularning tilshunoslikda qanday tahlil qilinishi haqida soʻz boradi. Publisistik uslubdagi matnlar, oʻzining noyob lingvistik xususiyatlari bilan jamiyatni shakllantirishda va ommaviy axborot vositalari orqali kommunikatsiya oʻrnatishda muhim rol oʻynaydi. Ushbu maqola, matnlarning kommunikativ maqsadlarini amalga oshirishda til va uslubiy vositalarining ahamiyatini koʻrsatishga harakat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

“Publitsistik uslub” termini rus tilshunoslari tomonidan yaratilgan ifoda xisoblanadi. Boshqa xorijlik tadqiqotchilar ushbu termin uchun turli ifodalarni,

jumladan, “jurnalistika tili”, “yangiliklar media tili”, “gazeta tili”, “efir tili” kabilarni qo’llashgan. O’zbek tilshunoslari esa mazkur terminga nisbatan “gazeta tili”, “publitsistika tili”, “jurnalistika tili” va keyingi vaqtlarda keng ommalashyotgan “medialingvistika” termin yoki ifodalarni qo’llashmoqda. Buni keyingi yillarda medialingvistik birliklarning tadqiqot obyekti sifatida tanlangan bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida ko’rishimiz mumkin. Tadqiqotchilar G.X.Boqiyeva, DM.Teshaboyeva [1], M.B.Xujayorov [2], M.R.Artiqova [3], S.A.Aktamova [4,], Sh.A.Usmonova o’z ilmiy izlanishlarida publitsistik matnga nisbatan mediamatn, medialingvistika, media til kabi terminlarni qo’llagan. Shu nuqtai nazardan biz ham publistik matnlarning lingvistik xususiyatlari deganda medialingvistika terminini qo’llashimiz ham mumkin.

N. M. Sirojiddinov [6] o’zining "Publitsistik uslub va uning stilistik o’ziga xosliklari" nomli tadqiqotida, publitsistik uslubdagi matnlarda foydalaniladigan stilistik vositalar va ularning kommunikativ maqsadga xizmat qilishini yoritadi. Ushbu ishda tilning stilistik xususiyatlari (qisqalik, yo’naltirilganlik, boshqaruv tuzilmalari) o’rganilib, stilistik vositalar yordamida maqsadli auditoriya bilan qanday ta’sir o’rnatilishi, ularni qanday tarzda harakatga keltirish mumkinligi tahlil qilingan. Stilistik vositalar, ayniqsa, ajoyib va tasavvurga asoslangan iboralar, amplifikatsiya va qayta ishlash texnikalari ommaviy axborot vositalarining auditoriya bilan samarali aloqada bo’lishida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, A. M. Usmonov [8] "Publitsistik matnlarni lingvistik tahlil qilish usullari" nomli maqolasida, tilshunoslarning matnni tahlil qilishda qo’llaydigan metodlarini batafsil bayon qilgan. U, ayniqsa, lingvistik metodlarni (kontent-analiz, diskurs tahlili, semantik tahlil) o’rganishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bunda, matnlarning shakl va mazmuni o’rtasidagi bog’liqlik, auditoriyaga qaratilgan til vositalarining roli, matnlarning stilistik va semantik xususiyatlari o’rganiladi. A. X. Sattorov [5] o’zining "Publitsistik uslub: sintaksis va leksika" nomli ishida, publitsistik matnlarda foydalaniladigan

maxsus sintaktik konstruktsiyalar, qiyoslash, savollar va boshqa soʻroq shakllarining auditoriyaga taʼsirini koʻrsatgan. Shuningdek, leksik tanlovda badiiy-soʻzlashuv uslublarning, metaforalar va simvolik ifodalarining oʻrni taʼkidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Publisistik uslubdagi matnlar lingvistik asoslarini oʻrganishning metodologiyasi koʻplab usullarni va tahlil yondashuvlarini oʻz ichiga oladi. Ushbu metodologiya, matnlarning lingvistik, stilistik va pragmatik jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan boʻlib, ularning kommunikativ maqsadlar, auditoriya bilan aloqalar va soʻz tanlovi kabi elementlarni oʻrganishga imkon beradi. Pragmatik tahlil - bu matnning maqsadli auditoriyaga qanday taʼsir qilishini, shuningdek, til vositalarining kommunikativ maqsadlar asosida qanday ishlatilishini oʻrganish usulidir. Bu yondashuv matnni faqat maʼlumot berish vositasi sifatida emas, balki auditoriyani harakatga keltirish yoki biror fikrni shakllantirishga yoʻnaltirilgan vosita sifatida koʻrib chiqadi. Pragmatik tahlil matnning ijtimoiy va siyosiy kontekstini hisobga olgan holda, tilning qanday ijtimoiy taʼsirlar koʻrsatishini aniqlashga imkon beradi.

Tahlillar va natijalar

Publisistik uslubning asosiy oʻziga xos xususiyatlari standartlik va ekspressivlikdir. Bu xususiyatlar matnda ikkita asosiy funktsiyani bajaradi: oʻquvchilarni imkon qadar tezroq xabardor qilish. Bunda jurnalistdan tayyor iboralar yoki bazida jurnalistik deb ataladigan klişelardan foydalanishni talab qiladi. Bu jihat axborotni tez suratga tinglovchi yoki oʻquvchiga yetkazishni taminlab beradi.

Ekspressivlik esa jamoatchilik fikriga tasir koʻrsatish zaruratidan kelib chiqadi. Bu ikki tendensiya doimiy qarama-qarshilikka uchraydi. Bunda gazeta janrining va jurnalistikaning kichik janrlarining oʻziga xos xususiyatlari birinchi navbatda muhoka qilinadi.

Ekspressivlik gazetalar, jurnallar, targ'ibot matnlari va sarlavlarning leksik xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Jumladan ingliz ommaviy axborot vositalarida konnotativ ma'noli so'zlashuv uslubiga xos so'zlar, turg'un birikmalar va xatto slenglar keng tarqalgan. Masalan, eyesore (ko'rimsiz), blackleg (ish tashlash jarayonida oldindagi odam) slenglar, drunk-driving (mast holda avtomobil haydash), think-tank (tahlil markazi), qisqartmalar champ ("champion" so'zining qisqartma shakli), "E.Germans" (Sharqiy Germaniyaliklarning qisqartma shakli). Ingliz tilidan faqarli o'laroq o'zbek tilining jurnalistik matnlarida slenglar kamroq qo'llaniladi. Yangi kirib kelgan so'zlar keng qo'llanadi. Biroq matnlar va ularning sarlavhalari kichik mikro matn ko'rinishida qo'llaniladi.

Umuman olganda, publitsistik uslubning lingvistik aspektlari deyilganda mazkur uslubda qo'llanadigan matnlarning qo'llangan til birliklarining til sathlarida ifodalanishi masalalarini anglash maqsadga muvofiq.

Publitsistik uslubdagi matnlarda qisqartmalar, atoqli otlari, kompaniyalar, ta'lim muassalari, geografik nomlar va boshqalar keng qo'llanadi. Masalan, Ingliz tilida: "In 2017, the Royal Society for Public Health (RSPH), an independent charity that seeks to improve people's wellbeing, conducted a UK-wide survey of 14- to 24-year-olds, asking them about the big five social media platforms: Twitter, Facebook, YouTube, Snapchat and Instagram". Matnda "RSPH", "UK" kabi qisqartmalar, "the Royal Society for Public Health" tashkilot nomi, "Twitter", "Facebook", "YouTube", "Snapchat" va "Instagram" platformalar nomlari qo'llanmoqda. O'zbek tilida: Netflix sobiq rahbari Svati Shetti tomonidan asos solingan Bridge7 kino kompaniyasi "Xarobadan chiqqan millioner" filmining davomi va filmga moslashtirilgan serialni suratga olish huquqini qo'lga kiritdi. O'zbek tilidagi mazkur matnda esa "Netflix" kompaniya nomi, "Svati Shetti" antroponim, "Bridge7" kompaniya nomi, "Xarobadan chiqqan millioner" film nomi kabilar leksik birliklar xisoblanadi.

Jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan bog'liq neologizmlardan foydalanish zamonaviy ommaviy axborot vositalarining eng mashhur usullaridan biridir. Bu ko'pincha fan va texnikaning yangi yutuqlarini o'zida mujassam etgan matnlarda keng qo'llanadi. Ingliz tilida: *“echo chamber”*, *“gaslighting”*, *“influencer”*, *“mic drop”*, *“milkshake duck”*, *“orbiting”* va shu kabilar. O'zbek tilida: *logistika*, *keshbek*, *domen*, *heshteg*, *chellench*, *hosting*, *stem* va shu kabilar.

Publitsistik uslubdagi matnlarda neologizmlar bilan birgalikda o'zlashma so'zlar ham keng qo'llanadi. Bu esa mazkur uslub leksikasining xilma-xilligini anglatadi.

J.Findraning xusolasiga ko'ra, publitsistik matnlarda neologizm va o'zlashmalardan tashqari ekspressiv so'zlar ham faol qo'llanadi. Publitsistik uslubdagi matnlarda xabar muallifi o'quvchiga tasir ko'rsatish va pragmatik maqsadga erishish uchun baholash kategoriyasiga ega leksikadan ham foydalanadi.

Publitsistik uslub yuqorida takidlab o'tilganidek, ommabomligi, xalqchilligi bo'lganligi bois, unda og'zaki va badiiy uslubning til belgilari ham nomoyon bo'ladi.

Odatda jurnalistik matnlarda monotonlik va takrorlanishga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, ayrim hollarda hodisa nomini aniqroq tasvirlash ko'tarilgan masalaga aniqlik kiritish maqsadida sinonimlardan foydalanish ko'p uchrab turadi.

Publitsistik uslubni o'rgangan V.L.Nayer [11] publitsistika tilining grammatik o'ziga xosligiga zamon va tovushlarni qo'llashdagi o'ziga xoslik, shaxsi noma'lum gaplarning keng qo'llanishi, murakkab atributiv shakllanishlarning ko'pligi, ko'chirma gap hamda ko'chirma gapli nutqni o'zlahtirma nutqqa aylantirishning maxsus shakllari, shuningdek, so'z tartibining xususiyatlarini kiritadi.

Xulosa

Publitsistik uslubdagi matnlarning lingvistik asoslarini o'rganish metodologiyasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Diskurs tahlili, kontent-analiz, semantik va pragmatik tahlil kabi metodlar yordamida matnlarning lingvistik

xususiyatlari, struktura va maqsadlari aniqlanadi. Ushbu metodologiyalar publisistik matnlarning samaradorligini va auditoriya bilan muloqotdagi ta'sirchanligini chuqur tushunishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida, publisistik uslubning o'ziga xos xususiyatlarini yanada aniqlashtirish va uning jamiyatdagi rolini tushunish uchun muhimdir.

Ushbu tadqiqotda publisistik uslubdagi matnlarning lingvistik aspektlari keng qamrovda o'rganildi. Publisistik uslub, ommaviy axborot vositalarida axborot berish, auditoriya bilan muloqot o'rnatish va turli ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritish maqsadida til vositalarining eng samarali ishlatilishini talab qiladi. Matnlar, o'zining kommunikativ maqsadlariga ko'ra, til va uslubiy elementlarni maxsus tarzda tanlaydi, bu esa auditoriyaning fikrini shakllantirish va uni harakatga keltirishda muhim rol o'ynaydi. Matnlarning lingvistik tahlili, leksik, sintaktik va stilistik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Leksik vositalar auditoriyaning hissiy reaksiyasini qo'zg'ash, sintaktik tuzilmalar matnning mazmuni va maqsadini aniqroq ifodalashda yordam beradi, stilistik vositalar esa matnning ta'sirchanligini oshiradi. Bularning barchasi, o'z navbatida, kommunikativ maqsadlar asosida auditoriya bilan samarali aloqani ta'minlashga qaratilgan. Pragmatik tahlil va diskurs yondashuvlari orqali publisistik matnlarning ijtimoiy va siyosiy kontekstidagi roli, auditoriya bilan aloqasi va tilning ta'sirchanligi aniqlanadi. Kontent-analiz va semantik tahlil yordamida matnning struktura va mazmuni o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, til vositalarining auditoriya bilan o'zaro aloqasi ko'rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, publisistik uslubdagi matnlarning lingvistik tahlili tilshunoslik va kommunikatsiya sohalaridagi samarali uslublarni aniqlash, auditoriya bilan ta'sirchan muloqot o'rnatish va ijtimoiy-siyosiy masalalarga e'tibor qaratishda muhim ahamiyatga ega. Ularning kommunikativ maqsadlari, so'z tanlovi va stilistik vositalari orqali auditoriya fikrini shakllantirish va harakatga keltirish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakiyeva G.X., Teshabayeva D.M. Mediamakonda matn (Monografiya). — Toshkent, 2019. — 222 b.
2. Xujayorov M.B. Media Linguistics and Its Role in the Language of Modern Mass Media // International Journal for Research in Applied Science and Engineering Technology. — № 10 (4). — 2022. — P. 2142- 2145.
3. Artikova M.R. Mediamatnda pretsedent fenomenining lingvomadaniy aspekti (o‘zbek va ispan gazetalari misolida): Filol. fan. fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. — Toshkent, 2022 — 54 b.
4. Atkamova S.A. Frazologizm mediamatnda ifodalash va baholashning uslubiy vositasi sifatida (turli tizimli tillar gazeta matnlari asosida): Filol. fan. fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. — Toshkent, 2022. — 58 b.
5. Sattorov, A. X. (2011). Publisistik uslub: sintaksis va leksika. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Sirojiddinov, N. M. (2015). Publisistik uslub va uning stilistik o‘ziga xosliklari. Toshkent: Akademnashr.
7. Tursunov, Y. K. (2018). Publisistik uslubdagi matnlarda lingvistik strategiyalar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
8. Usmonov, A. M. (2017). Publisistik matnlarni lingvistik tahlil qilish usullari. Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi.
9. G‘ulomov, B. R. (2020). Publisistik uslub va til madaniyati. Toshkent: Sharq nashriyoti.
10. Xamrayev, A. (2012). Lingvistik tahlil metodlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
11. Наер В. Л. К описанию функционально-стилевой системы современного английского языка // Лингвостилистические особенности научного текста. - М., 1981.

12. Gafurova, G. (2024). Publisistik uslubdagi matnlar elektron tarjimasini funksional pragmatik muvofiqligi. Xiva: Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi.